

FE'L O'QITISH DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Yulikova Malohat Yusufvna
Farg'ona viloyati Oltariq tumani
10-umumta'lim maktab o'qituvchisi

Fe'l ustida ishlashda izchillik, bo'limlar orasidagi bog'lanish, dastur materialining hajmi, uni har bir sinfda o'rganish usullari va vositalari shu so'z turkumini o'rganish vazifasi, uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi.

“Fe'l” mavzusini o'rganishda asosiy vazifalar: so'z turkumi sifatida fe'l haqida dastlabki tushunchani shakllantirish, o'quvchilar nutqini fe'llar bilan boyitish hamda og'zaki va yozma nutqda fe'ldan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini o'stirish, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish, grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim imloviy qoidalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Bu vazifalar bir-biri bilan bog'liq holda hal etiladi.

Fe'lning lingvistik xususiyatlari xiyla murakkab, shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilari faqat uning muhim nazariyalari bilan tanishtiriladi. Material tanlashda shu materialning nutq va imloga oid vazifalarni hal qilishda qanchalik zarurligi hisobga olinadi.

Shu sababdan ham darslar davomida bolalarning faolligini oshirish va yangi tushunchalarni oson o'zlashtirishga yordam beruvchi interfaol metodlardan foydalanish katta samara beradi.

Dastavval, bu kabi yangi pedagogik texnologiya mazmunini o'rganib chiqsak. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni shirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma'ruzalar soni kamligi, lekin seminarlar soni ko'pligi, o'quvchilar tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo'lib, ular ta'lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega.

3-sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi”ni kuzatar ekanmiz, u yerda ibora va so'z orasidagi sinonimiyalarni topishga doir mashqlar berilgan.



Bu turdagi topshiriqlarni bolalarga berishdan asosiy maqsad, ularning og'zaki nutqini rivojlantirish, so'z boyligini orttirish, ona tilimizning naqadar boy ekanligini anglatishdan iborat. Bundan tashqari, mashqni yechish davomida o'qituvchi integratsion yondashuvi talab qilinadi. Bola o'zaro sinonimlikni anglashi uchun so'z qanday ma'noni ifodalayotganligini o'rgangan bo'lishi kerak.

So'zlarning leksik-semantik, grammatik mazmuni jihatidan guruhlari esa so'z turkumlari. Mashqda berilgan so'z harakatni ifodalayotgani haqida nazariy ma'lumot berib o'tilishi maqsadga muvofiq, chunki o'quvchilarda yeyish bilan bog'liq amaliy ko'nikma allaqachon shakllanib bo'lgan. Fe'l so'z turkumiga tegishli bo'gan atamalar boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xiyla murakkablik qiladi. Bu kabi vaziyatlarda pedagog uchun interfaol metodlar yordamga keladi. Aynan shu mavzu doirasida oladigan bo'lsak, bolalarga aynan shu ibora qatnashgan videofilm topib, aynan shu vaziyat bilan bog'liq qismini qirqib olib ko'rsatilsa, bolaning so'zni his etishi osonlashadi. Bu yoshdagi o'quvchilar yosh xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, ular ma'lum bir ma'lumotni aynan o'zinimas, uning lokatsiyasini o'rganib olishlari anchagina oson. Bola ko'radi, kuzatadi va xulosalay oladi.

O'quvchilar o'rgangan bilimlarini tekshirish yoki mavzuni mutahkamlash uchun moslangan yana quyidagicha didaktik o'yinlar mavjud:

1. Bahs metodi. Bu usul qatnashchilari uchun quyidagicha eslatmalar berib ketiladi:
 - a) Bahs munosabatlarni hal etish usuli emas balki muammoni hal etish usulidir.
 - b) Boshqa ishtirokchilarga ham so'z berish uchun uzoq vaqt nutq so'zlama.
 - c) Har bir so'zni o'ylab, to'g'ri ifoda qil, hissiyotlaringni nazorat qil, chunki sening aqliy fikrlaring o'z maqsadiga yetishi kerak.
 - d) Opponent nuqtai nazarini tushunishga harakat qil, uni hurmat qil
 - e) Opponent fikrini buzmasdan e'tirozlaringni aniq bildir.
 - f) Faqat bahs mavzusi bo'yicha fikr bildir, ko'p o'qiganliging va umumiy bilimdonligingni ro'kach qilma.
 - g) Kingadir yoqishni ko'zlab hushomad qilishingga va o'z nutqing bilan ranjitishga qarshi kurashgin.

2. «Aqliy hujum» biror muammoni yechishda gurux qatnashchilari tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan eng samarali usuldir. U to'g'ri va ijodiy qo'llanilganda shaxsni

erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi. "Aqliy hujum" yordamida turli xil muammolarni hal qilishning yo'llari izlanadi. Bu usul guruhning har bir a'zosi fikrini tezda yig'ish va umumlashtirish imkonini beradi. "Aqliy hujum"ni, o'quvchilar muammo haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lmagan hollarda ham qo'llash mumkin. Bu kutilmagan, oddiy shiroitda aqlga kelmaydigan antiqa yechimlar tonish imkonini beradi.

3. **Muloqot” texnologiyasi.** Ushbu texnologiya o'quvchilarning dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o'z fikrlarini erkin bayon etishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, odatda, bunday mashg'ulot o'quvchilarni kichik guruhlariga ajratilgan holda o'tkaziladi. Texnologiyaning maqsadi – tanlangan mavzu, muammo asosida o'quvchilarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo'lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to'g'ri xulosa chiqarishlariga yoram berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirish va muloqot qila olishga o'rgatish.

4. Express-testlar ma'lum tushunchalar ketma-ketligidan so'ng (1-2 mavzu) shu mavzularda o'quvchilarning o'rgangan bilimlarini nazorat qilish va uni mustahkamlash uchun o'tkazish maqsadga muvofiq. Express-testlar adadta shu mavzularga oid 3-4 ta kichik va yengil mashg'ulot topshiriqlardan yoki testlardan iborat bo'ladi. Express-testlarni darsning ichida qisqa vaqtlarda (5-10 min) o'tkazish mumkin. Topshiriqlar ko'p variantli tizimda kartochkalarda tarqatiladi. Bu testni o'tkazishdan asosiy maqsad o'quvchilar DTS minimal talablarini o'zlashtirganliklari tezkor ravishda aniqlab olishdan iborat.

Yuqoridagi metodlarni faqat fe'l mavzusi doirasida emas, balki boshqa darslar davomida qo'llash ham o'zlashtirish va mustahkamlash jarayonida qo'l keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: 3-sinfi uchun darslik / K.Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 144 b.
2. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik): | K. Qosimova |, S.Matchonov, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, Sh. Sariyev. — T.: «NOSHIR», - 2009. 352 b.
3. https://baxtiyor.uz/oqituvchilar-uchun-barcha-fanlardan-metodlar-toplami/#google_vignette